

OMONIMIYAGA OID TADQIQOTLAR TALQINI

Feruz Rajabov Umarqulovich

QarMII akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Bu maqolada omonimiya hodisasi va omonimlikka ega til birliklari va ularning tadqiqi tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *omonimiya, ishoraviy omonimiya, tuyuq, tajnis, affiks omonimiya, konversiya.*

Bugungi kunda omonimiya hodisasi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Shuningdek, omonimiya hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida omonimiya hodisasi va uning turli turli til birliklari bilan qiyoslash asosida Sh.Rahmatullayev, M.Ravshanov, B.Suyunov, M.Jo'raboyeva, U.Tursunov va N.Rajabov, M.Mirtojiyev, K.Usmonovlar ilmiy tadqiqot²⁹ olib borganlar. Olib borilgan tadqiqotlarda omonimiya hodisasi *qo'shimcha, so'z, ibora, tasviriy ifoda, so'z birikmasi, gap* hattoki *ishora*(tinish belgi)da mavjud bo'lganidan fanda *affiks omonimiya, leksik omonim, frazaviy omonimiya, parafazaviy omonimiya, so'z birikma omonimiya, gap omonimiya va ishoraviy omonimiya* va boshqaturlarga bo'linadi³⁰. Ko'rinib turibdiki, omonimiya hodisasi lug'aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud.

Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg'ariy hisoblanadi. Koshg'ariy omonimlarga oid materiallarni to'plabgina qolmasdan, ularni ilmiy jihatdan sharhlab ham o'tgan. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" asarida o't so'zining o'simlik, quruq xashak, davo va zahar singari to'rt xil ma'noda ishlatilishini ko'rsatib o'tgan³¹. Keyinchalik bu so'z olov, o'tmoq so'zining o'zagi kabi ma'nolar bilan boyigan³². Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, *olov* ma'nosidagi *o't* so'zi tamomila boshqa o'zakdandir. Mahmud Koshg'ariy bu so'zni *o'rt* shaklida ko'rsatadi. Buni Alisher Navoiy asarlari ham tasdiqlaydi:

*Quyoshdek olam aro bazm chog'i,
Jahonga o'rt solib razm chog'i.*

²⁹Raxmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (Frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonomiya, omonimiya va omonimlik). -Toshkent, 1966.; Ravshanov M. O'zbek tilining izohli lug'atida omonimlar tavsifi. -Toshkent, 1991.; Suyunov B.T. O'zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -Toshkent, 2009.; Jo'raboyeva M. O'zbek tilida affiks omonimiya. (I qism) T.: ToshDU, 1992.; O'zbek tilidagi shakldosh qo'shimchalar (II qism), T.: ToshDU, 1999.; Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. - Toshkent: 1966.; Mirtojiyev M. O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. - Toshkent: 1963. -B.124.; So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Fan, 1981.; Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. - Toshkent: Fan, 1975. Usmonov K. O'zbek tilida affiks omonimlar. -Nasaf:1996.- 86 b.

³⁰Rajabov F. Omonimiya. - Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019. - 264 b.

³¹ Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. -Toshkent:1960. - B.56

³² Mutallibov S. Omonim va polisemiya so'zlar. -Toshkent:1954.- B.29-30

Bizningcha, bu fikrda yetarlicha asos bor. Chunki hozirgi kunda faol iste'molda bo'lgan "o'rtanmoq" so'zi ham *kuymoq*, *yonmoq* ma'nosini ifodalaydi:

O'rtamoq I. O't olmoq; yonmoq, yondirmoq. *Uylarimiz o'rtab yonardi, Issig'iga isinardi yov... T.To'la. Xaloyiq... qizil askarlar xonumonimizni o'rtabvayron qildi...* N.Safarov. Ko'rgan-kechirganlarim.

O'rtamoq II. ko'chma. Nihoyat darajada qizdirmoq; kuydirmoq. *Quyoshdan oqqan olov seli gavjum shahar ko'chalarini o'rtaydi.* J.Abdullaxonov. Oriyat.

O'rtamoq III ko'chma. Ruhiy alam-iztirobga solmoq; kuydirmoq. Yurakni o'rtamoq. Jonni o'rtamoq. *Nega indamaysan, yig'laysan, Yurak-bag'rim o'rtab tig'laysan.* E.Rahim. *Ostingda yuz alvon o'ynaydi oting, Dushmanni o'rtaydisha'ni-shavkating.* "Alpomish". *Akromning qulog'iga karnay-surnay sadosichalinsa, hech qachon ushalmas orzusi alam bo'lib, vujudini o'rtaydi.* E.Usmonov. Yolqin³³.

Navoiy o'z asarlarida omonimlarning semantik va poetik xususiyatlarini ochar ekan, ularni o'z ona tilining boyliklari deb hisoblaydi va turkiy(o'zbek) tili omonimlarga nihoyatda boy ekanini va ular asosida go'zal tuyuqlar yaratish mumkinligini ta'kidlaydi:

"Ot lafziki, bir ma'nisi alamdur, yana bir ma'nisi markabdur va yana bir ma'nisi amrdurki, toshni yo o'qni ot deb buyurg'aylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim,

Chun pariyu hurdur oting, begim,

Sur'at ichra dev erur oting, begim.

Har hadangikim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari oting, begim.

Va bu ikki baytki, tajnisi tomdu, ham turk shuarosi xossasidurki, soartda yo'qtur va muni tuyug' derlar..."³⁴.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilidagi tarixiy omonimiyani tadqiq qilish diaxronik aspektida olib boriluvchi alohida ishning obyektidir. Bu muammoning ba'zi tomonlari S.Mutallibovning ishlarida qisman tahlil qilingan³⁵.

Omonimlar har xil stilistik maqsadlarda hozirgi turkiy tillarda qanday ishlatilayotgan bo'lsa, yozma obidalarda ham xuddi shunday qo'llanilgan. Biroq omonimlarning yozma obidalar tilida ishlatilishi hozirgiga nisbatan ancha chegaralangan. Bu bilan bunday omonimlar keyingi davr til hodisasi ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Hozirgi turkiy tillar lug'at boyligida mavjud omonimlar qadimda ham aks etgan, lekin yozma obidalar tilida chegaralangan holda ishlatilgan: baliq I "baliq", baliq II "shahar"; bar I "bor, mavjud", bar- I "bormoq", adin I "boshqa", adin- I "o'zgartirmoq, to'g'irlamoq", agir I "og'ir", agir II "hurmatli, qadrlı", ay I "oy", ay II "oy, vaqt", ar- I "bo'lmoq", ar- II "aldamoq". Demak, qadimgi turkiy tilda omonimlarning ishlatilishi o'sha til leksik qatlamining rang-barangligidan dalolat beradi³⁶.

³³ O`TIL. –Toshkent: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006-2008.– B.172

³⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-tom. –Toshkent: Fan,2000. – B.17

³⁵ Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. –Toshkent: 1953. – B.15

³⁶ Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -T.,2015.– B.42

M.Ravshanov “O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi omonimlar” mavzusidagi nomzodlik ishida quyidagicha yozadi: “Shu kungacha vatanimiz lingvistikasida omonimiya va polisemiyaning o‘rganishda ikki qarama-qarshi nuqtai nazar, ikki har xil yondashuv mavjud edi. Shulardan birinchi (an’anaviy) nuqtai nazarga ko‘ra, fonetik jihatdan bir xil, genetik jihatdan o‘zaro bog‘lanmagan va faqat tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida bir-biri bilan mos bo‘lib qolgan so‘zlar omonimlar deb hisoblangan. Qolgan holatlar, ya’ni har xil mazmundagi leksemalarning material jihatdan bir xil bo‘lib qolishi ko‘p ma’nodlilik deb qaralgan. Kengroq tarqalgan ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari haqiqiy (geterogen) omonimlardan tashqari, dastavval bir so‘z bo‘lib, keyinchalik, semantik bog‘lanishning uzilishi natijasida paydo bo‘lgan so‘zlar – 6 semantik (gomogen) omonimlar ham mavjud deb hisoblaydilar. Bunday nuqtayi nazar O.S.Axmanova, R.A.Budagov, V.V.Vinogradov, Y.M.GalkinaFedoruk, N.P.Kolesnikova, L.A.Novikov, S.I.Ojegov, A.A.Reformaskiy, A.I.Smirniskiy, I.I.Fomina, A.Y.Shaykevich, N.M.Shanskiy, D.N.Shmelyov va boshqalarning tadqiqotlarida ham berilgan”³⁷. Jumladan, I.Vardul omonim tushunchasini lisoniy tizimning barcha birliklari – “morfologik yarusdagi morfemadan tortib, sintaktik darajadagi gap va davrgacha va supra sintaktik yarusdagi xabargacha” taalluqli deb hisoblaydi³⁸.

Omonimiya hodisasini o‘rgangan olim Y.Maslov shunday yozadi: “Til nazariyasida omonimiya va omonimning leksikografik ish amaliyotiga nisbatan ancha kengroq tushunilishidan kelib chiqish samaraliroq ko‘rinadi. Biz omonimiya deganda ikkita turli belgilovchining bir xil talaffuzini tushunamiz. Bu bir tomondan so‘zlar, morfema yoki morfemali birliklar hamda so‘z birikmalari darajasidagi tushunchaga taalluqli. Ko‘rsatilgan tarzda belgilangan tushunchaning ichida turli bo‘limlarni ajratish mumkin”³⁹.

Yuqorida Y.Maslovning fikricha omonimlar bu – ikkita turli belgilovchi, ya’ni ma’no anglatuvchining bir xil talaffuz qilinishi sifatida baholagan. Vaholanki omonimlar ikki xil ma’noga ega bir xil talaffuz etiluvchi so‘zlardir. Aynan omonimlarning qo‘llanishi nutqning o‘ziga xosligi belgilaydi.

G.Ismailov omonimlarga bag‘ishlangan maqolasida: “Ma’lumki, omonimiya tuzilishi bir xillikka asoslangan, ammo ma’no jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan leksik hodisa hisoblanadi. Turli xil tillarda, qolaversa, o‘zbek tilida ham omonimiya leksemalar o‘rtasida o‘zaro ta’sirning paydo bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi”⁴⁰ – deb yozadi.

³⁷ Ravshanov M. Омонимы в толковом словаре узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1991. – С.5

³⁸ Вардудль И.Ф. Место семантики в лингвистическом описании//Вкн.: Проблемы семантики. – М.: Наука, 1974. –С.17-18

³⁹ Маслов Ю.С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) // Вопросы теории и истории языка: Сборник в честь профессора Б. А. Ларина. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1963. –С.128-202

⁴⁰ Г.М. Омонимия транс терминов (на материале узбекского языка) Институт языка и литературы Академии наук Республики Узбекистан. 2012.–С.67

Omonimlar haqida E.V.Sevortyan *fe'l-ot* tipli o'zaklar deb fikr bildirsa⁴¹, qirg'iz olimasi B.O.Oruzbayeva *bir o'zakli* omonimlarni turkiy tillardagi qadimiy so'z yasash usullaridan biri deya ta'kidlaydi⁴², boshqa bir qator olimlar esa omonimlarni bir so'z turkumiga xos so'zning boshqa turkumga o'tishi natijasi, ya'ni *konversiya* deb ataydilar⁴³.

Omonimiya va u bilan bog'liq til hodisalarining tarixiga nazar tashlash, mavjud nazariy xulosalarga baho berish, o'z munosabatlarimizni bildirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uni o'rganish hamda jamoatchilikka tatbiq etish til boyligini oshirishga olib keladi. Shuning uchun ham bugungi kunda omonimiyani o'rganish muhim hisoblanadi.

Rus tilshunoslari tomonidan omonimiyaga oid ko'plab ishlar amalga oshirilgan. O'tgan asrning 60-yillarda akademik V.V.Vinogradov omonimiya masalasiga tilshunoslar tomonidan alohida ahamiyat berilayotganligi, bu masalani so'z va uning fonologik, morfematik qurilishi, tipologiyasi, yasaliq formalari, morfonologiyasi va sintagmatikasi kabi umumiy masalalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga harakat qilinayotganligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Omonimiyaning morfologik birliklarga ham xos ekanligi bugungi kun uchun yangilik emas. Chunki L.A.Bulaxovskiy 1928-yili e'lon qilingan "Из жизни омонимов" nomli maqolasida xuddi shu fikrni ilgari surgan edi. Muallif omonimlarning turli tiplarini farqlashga harakat qilgan, ularni leksik, morfologik, bir xil va har xil morfologik guruhlarga ajratgan, tub va yasama, yaqin va yaqin bo'lmagan tushunchalar tarzida tavsiflagan⁴⁴.

V.V.Vinogradovning "О грамматическое омонимии в современном русском языке" maqolasida ot, sifat, son turkumlarida turli formalarning shaklan teng kelib qolish hollari tahlil qilingan va "shakliy tenglik" **omoformiya** termini bilan atalib, uni tom ma'nodagi omonimiyadan farqlash zarurligi ta'kidlangan. Shunga yaqin fikr A.I.Smirnitskiyning "Некоторые замечания по английской омонимике" nomli maqolasida ham ilgari surilgan⁴⁵. Bunda ham avvalgi maqoladagi kabi so'zlar ortasidagi omonimik holat bilan har xil so'z ko'rinishlarining omonimligini farqlash zarurligi to'g'ri korsatilgan. Lekin hali bu ishlarda leksik, grammatik, xususan, morfologik, sintaktik affiksial omonimiyaning farqi aniq chegaralab berilgan deb bo'lmaydi. Biroq keying yillarda O.S.Axmanova, A.A.Potebnyalar ham omonimiya bo'yicha tadqiqotlar qilishgan.

Omonimiya masalasi haqida B.M.Yunusaliyev quyidagicha fikr bildiradi: Omonimlar so'zning lug'aviy-grammatik rivoji mahsuli, ya'ni bitta so'zga bir necha ma'noni yuklash natijasi⁴⁶.

⁴¹Sevortyan E.V. Affixsiglagoloobrozovaniya azerbaydjon komiyazike. –Moskva:1962. B–365

⁴² Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. – Фрунзе: 1955. С-262

⁴³ Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. –Москва:1956. С–160-161 ., Реформатский А.А. Введение языкознание. –Москва:1967. С–88

⁴⁴Bulaxovskiy L.A. "Из жизни омонимов" 1928. –С.56

⁴⁵ A.I.Smirnitskiy "Некоторые замечания по английской омонимике"

⁴⁶Yunusaliyev B.M. Kirgizskaya leksikologiya. Frunze 1955. – B.-365

Tilshunos Faxri Kamol omonimlarni quyidagicha ta'riflaydi: "Shakli bir, ma'nosi boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar omonimlar gruppasiga kiradi. Omonimlar, asosan, bir xil ohangda aytiladi va bir xil shaklda yoziladi". U o'zining "O'zbek tili leksikasi" nomli ishida omonimlarga kengroq to'xtalgan. Masalan, omonimlarni shakllantiruvchi omillardan quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

1. Ba'zi bir so'zning ma'no xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatning borgan sari uzoqlashishi natijasida. Masalan, *kun*, *oy* so'zlari.

2. Ma'lum so'z, o'zak– negizdan yangi so'zlar yasalishi natijasida. Masalan, *oylik* – "maosh", *oylik* – "reja".

3. Bir tilga ikkinchi bir tildan so'z va termin qabul qilinishi natijasida. Masalan, *tom* – "uyning tepasi", *tom* – "kitobning jildi".

4. So'zlarning ba'zi tovushlari o'zgarib, boshqa shaklga ko'chishi natijasida omonimlar paydo bo'ladi⁴⁷.

Bundan tashqari yana bir qator tadqiqotlarda omonimlar masalasiga doir fikrlar bildirilgan. O'zbek tilidagi omonimlar, ularning vujudga kelish yo'llari haqida Y.Pinxasov⁴⁸, U.Tursunov va N.Rajabovlar⁴⁹ ham o'z fikrlarini bildirib o'tganlar.

Omonimiya masalasi, ularning yuzaga kelishi, qadimiy holatlari ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham omonimlarni atroflicha tadqiq qilish masalalariga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy maqolalar va monografik tadqiqotlar mavjud.

E.Begmatov omonimiya masalasida to'xtalar ekan, jumladan, quyidagicha fikr bildiradi: So'zlarning o'zaro semantik munosabatlari: ma'noda yaqinlik (sinonimlar), ma'noda moslik (dubleltlar), teskari ma'noga egalik (antonimlar), bir tematik qatorga mansublik (terminlar, professionalizmlar), shaklan moslik (yaqinlik) va mazmunan uzoqlik (omonimlar)⁵⁰. E.Begmatov omonimlarni til leksikasining sistemaviy xususiyatini ko'rsatuvchi hodisalardan biri deb ta'kidlaydi.

Omonimiya ba'zi olimlar tomonidan salbiy hodisa deb baholanadi. Aytishlaricha, omonimiya fikrni to'g'ri va tez anglashga xalaqit beradi. Shu jihatdan til uchun ortiqcha yuk deb qaraladi. Bu fikrga to'liq qo'shilishimiz qiyin. Chunki omonimning yolg'iz o'zi bilan gap tuzib, fikr anglatish kamdan-kam hollarda uchraydi. Omonimiya asosan matn shalida bo'lib, matn esa odatda omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi.

Umuman, omonimiyaning voqe bo'lishi tilning o'z xususiyati bilan izohlanadi: har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma'no jihatida ham uzluksiz o'zgarishlar bo'lib turishi bilan omonimiyaning paydo bo'lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim.

⁴⁷ Faxri Kamol. O'zbek tilileksikasi. – Toshkent: O`ZRFAnashriyoti, 1953. – B.29-30

⁴⁸ Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. –Toshkent: 1960.

⁴⁹ Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.

⁵⁰ Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B.24

O'zbek tilidagi omonimlarni o'rganib, tadqiq qilish ishiga M.Mirtojiyev salmoqli hissa qo'shdi. Olim omonimlar haqida, jumladan, quyidagicha fikr bildiradi: "Omonimiya masalasi yuz yillar muqaddam N.I.Grech tomonidan ilgari surilgan... . Shunga qaramay, biror tilda hanuzgacha omonimlarning vujudga kelishi yuzasidan hech qanday monografik asar yo'q. Ma'nolari bir bosh ma'no orqali bir-biri bilan aloqador so'zlar ko'p ma'noli – polisemantik so'z deyiladi. Polisemantik so'zlarning ma'nolari har qancha ko'p bo'lmasin, u baribir bir so'zdir. Uning ma'nolari esa shu so'zning turli qirralaridir. Omonimlarning birinchi belgisi – o'zicha mustaqil ma'noga ega ikki va undan ortiq so'zlar bo'lishidir. Ikkinchi belgi – nomlarning bir xilligidir... .

Leksik omonimlar lug'at boyligi taraqqiyotining quyidagi hodisalari natijasida vujudga keladi:

1. O'zbek tilining boshqa tillar bilan munosabati natijasida. Masalan, *sir, alam, banka, bog'*.
2. O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning kirib kelishi natijasida. Masalan, *bo'lishmoq, shoti, chavoq*.
3. So'zlarning leksik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, *ort, g'arch, ko'k*.
4. So'zlarning semantik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, *banoras, teri, yaramoq, qiziq, is*.
5. So'zlar fonetik o'zgarish orqali o'zaro ham talaffuz, ham yozilish jihatidan bir xil bo'lib qolishi natijasida. Masalan, *o't, o'ch, chag'ir, bog', oz, yor..* .

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida polisemantik so'zlar omonimlarni vujudga keltirib turadi. Polisemantik so'zning ma'nolaridan birirtasi boshqa ma'nolarga bog'langan aloqasini yo'qotsa, u mustaqil ma'noli so'zga aylanadi, ya'ni omonim vujudga keladi. Demak, tilda polisemantik so'zlarning omonimga o'tish jarayoni yuz berib turadi. Bu hol, albatta, omonimlar bilan polisemantik so'zlarni ajratib olish uchun xalaqit beradi. Shuningdek, ularning chegarasini belgilashda ham qiyinchilik tug'diradi⁵¹.

M.Mirtojiyevning omonimiya haqidagi ayrim qarashlari "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida o'z aksini topgan. Ushbu kitobda o'zbek tilidagi so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajratilgan: birinchisida muallif shakily o'xshashlik va shakliy bir xillik, ya'ni paronimiya hodisasini, ikkinchisida esa omonimlar, omograflar, omofonlarni ko'zda tutadi⁵².

M.Mirtojiyev omonimlarni ta'riflar ekan, uni omofoniyaga taqqoslagan holda tushuntirishga harakat qiladi: "Birdan ortiq so'zning aynan bir xil talaffuz etilishi omonimiya deb yuritiladi. Bunda, albatta, birdan ortiq so'zning fonetik strukturasidagi bir xillikka ko'ra, bir xil talaffuz etish nazarda tutiladi. Shunisi bilan omonimiya omofoniyadan farq qiladi. Omofoniya esa ikki so'zning fonetik strukturasidagi ayrim tafovutidan qat'iy nazar, so'zdagi pozitsion, kombinator – umuman ma'lum shart-sharoitlardan kelib chiqib, bir xil talaffuz etilishidir.

⁵¹ Mirtojiyev M. O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent:1963. –B.124

⁵² Mirtojiyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.255

Omofoniyani yuzaga keltiruvchi komponentlar miqdori esa chegaralanmagan bo'ladi. Uni esa biz o'zbek tilida ikkitadan oltitagacha miqdorda uchratamiz⁵³. Ushbu ishda o'zbek tilidagi omonimlarning yuzaga kelishida o'z va o'zlashma qatlam so'zlarning qay darajada ishtirok etishi, lug'aviy, fonetik va boshqa omonimlarning o'rni tahlil qilib berilgan.

M.Mirtojiev omonimlarning yuzaga kelish yo'llaridan birini shunday izohlaydi: "Polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi omonimlarning shakllanishi uchun asos bo'la oladi. Agar polisemantik so'z ma'nolari quyidagi yo'llar bilan taraqqiy etsa, uning ma'nolari o'rtasidagi aloqa uziladi, ya'ni u birdan ortiq so'zga differentsiatsiya bo'lib, omonim vujudga keladi. Leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'z ma'nolari o'rtasidagi aloqaning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'zlar vujudga kelishi uchun ham asos bo'ladi. Masalan, *musht* so'zidagi ma'no taraqqiyotiga e'tibor beraylik. Uning birinchi ma'nosi "qo'l uchining barmoqlari yumuq holati"dir. O'sha qo'l uchining barmoqlari yumuq holatining "zarbi" ni ifoda etuvchi leksik ma'no esa tobelik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nodir⁵⁴.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, omonimiya hodisasini polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi yuzaga chiqaradi. Aslida esa so'zlardagi ma'no taraqqiyoti asosga olinishi kerak. Omonim so'zning polisemiya bosqichini o'tashi shart emas.

Omonimlarga berilgan ta'riflarda "ma'nodagi har xillik" tushunchasi turlicha talqin etiladi. Bu ayniqsa affiksial omonimlarga berilgan ta'riflarda aniq ko'rinadi. Ularda affikslar anglatgan ma'noning leksik ma'nodan farq qilishi nazarda tutilib, ta'rifdagi ma'no tushunchasini chegaralab ko'rsatishga intilish ko'zga tashlanadi. Bir qator ishlarda shakliy teng affikslarni "grammatik ma'nosiga kora", "funktional-semantik xususiyatiga ko'ra", har xil so'z turkumlarini yasashiga ko'ra" farqlanishi qo'shimcha qilinadi.

Bu, birinchidan, shu qo'shimchalar o'rtasidagi omonimik holat faqat bir turkum yoki bir vazifani bajaruvchi (masalan, so'z yasovchilar doirasidagina) qo'shimchalar o'rtasida yoxud har xil turkumga kirib, har xil vazifani bajaruvchi affikslar o'rtasida mavjud deb qarash natijasidir.

Ikkinchidan, affikslar omonimiyasini chegaralab (masalan, bir turkum doirasida yoki so'z yasovchilar doirasida olib) o'rganish bilan bog'liq.

Umumiy qilib aytganda, affiksial omonimik qatorni belgilashda affikslarning qanday vazifa bajarishi, qaysi turkum so'zlarni hosil qilishi belgilovchi mezon bo'la olmaydi. Aksincha, bunda ma'no va shakl yetakchi hisoblanadi. Omoaffikslarni yoppasiga tahlil qilish ham asosan shu nuqtai nazarga tayanishi lozim. Chunki affiksial omonimlarni shakl nuqtayi nazaridan o'rganish ularning kelib chiqishi, aytilishi va yozilishi bilan bog'liq turlari, struktur ko'rinishlari, o'ziga xos

⁵³ O'sha manba. – B.267

⁵⁴ Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. –B.31

xususiyatlarini atroflicha yoritishga imkon yaratsa, ma'no asosida yondashish esa affiksial omonimiya bilan affiksial polisemiya, affiksial ko'p vazifalilik, umuman, grammatik omonimiya kabilarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, funksional-semantik, funksional-uslubiy turlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Yaqin vaqtlargacha omonimiya hodisasi, ya'ni fonetik va ma'no jihatdan o'xshashlik faqatgina so'zlarga xos deb qaralgan. Lekin dalillar shuni ko'rsatmoqdaki, omonimiya morfemalar singari boshqa til birliklariga ham xosdir.

So'z yasovchi omomorfemalarning fonetik hamohangligi va leksik ma'nolarining farqlanishi oldindan tilshunos olimlarning e'tiborini o'ziga tortgan. V.V.Vinogradov, A.I.Smirnitskiy, O.S.Axmanova va boshqalarning omonimik affikslar to'g'risida fikr-mulohazalari mavjud bolsa-da, bu masala hali-hanuz maxsus ilmiy izlanishlar predmetiga aylanib ulgurmagani.

Omonimiya, ya'ni fonetik hamohanglik va ma'noviy farqlanish nafaqat so'zga, balki ko'pgina boshqa til birliklariga ham xosdir. Aynan shuning uchun omonimiya muammosini nafaqat leksikologiya, balki grammatika va fonetika ham o'rganishi kerak.

Zamonaviy tilshunoslikda fonetik hamohanglik hodisasi to'g'risida ikkita qarama-qarshi fikr mavjud. Ba'zilar, shu jumladan, A.A.Reformatskiy va boshqalar omonimlarning paydo bolishi tilning lug'aviy tarkibining boyishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaydilar. Boshqalar esa (J.Vandries, O.S.Axmanova, V.V.Vinogradov, E.M.Galkina-Fedoruk va boshqalar) fonetik hamohanglik hodisasini til rivojlanishining ichki qonuniyati asosida vujudga kelgan jarayon deb biladilar.

Fonetik hamohanglik hodisasi til rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq mavjud edi. Shunga ko'ra, ideografik yozuvda turli ma'noga ega so'zlar har xil belgilar bilan tasvirlansa-da, bir xil talaffuz qilinadi⁵⁵.

Turli xil fonologik hodisalar natijasida, bir qator asosiy til birliklari o'zgaradi va boshqa til birligi bilan o'xshashlik hosil qiladi. Fonetik hamohanglik va ma'no jihatdan farqlanishning asosiy sabablari quyidagilarga borib taqaladi:

- polisemantizmning bo'linishi oqibatida yangi til birliklari vujudga keladi.
- boshqa tillardan bir qator til birliklari (so'z, morfema) o'zlashadi.
- dialektlar hisobiga fonetik hamohanglik vujudga keladi.

Bir xil tovushlar jamlanmasida bir xil til birliklariga oid turli ma'nolar birlashadi. Bular jumlasiga omogrofemalar, omomorfemalar, omonimlar, omofon-jumlalar va hokazolar kiradi. Boshqa til birliklariga nisbatan jumalarning fonetik hamohangligi qiziqroqdir, chunki jumla boshqa birliklarga qaraganda kattaroqdir.

Fonetik hamohanglik va ma'no jihatdan farqlanish ko'pchilik til birliklariga xos. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda faqat so'zlarning fonetik hamohangligini ko'rsatuvchi omonimlar termini fonemalar, so'zlar zanjiri, so'z birikmalari, jumlar kabi qolgan til birliklarining fonetik hamohangligini aks ettira olmaydi. Shuning

⁵⁵ Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1994 -№ 1

uchun bu termin juda ham chegaralangan bo'lib, barcha til birliklarining fonetik hamohangligini o'zida aks ettira olmaydi. V.V.Vinogradov-ning ta'kidlashicha, so'zlar va affikslarning fonetik hamohangligi bir-biridan tubdan farq qilsa-da, ko'pgina hollarda "omonim" tushunchasini asossiz va noto'g'ri ravishda affikslarga nisbatan ham qo'llashadi. Shuning uchun V.V.Vinogradov bir tarafdin omofon (omograf) morfemalarni, boshqa tarafdin omofon (yoki shaklan tovush tarkibi bo'yicha mos) so'zlarni ifodalovchi yangi termin yaratish lozimligini ta'kidlaydi. Shu sababdan turli til birliklarining fonetik hamohangligi va ma'no jihatdan farqlanishini turli terminlar bilan ifodalash kerak. T.A.Aleskerevaning omonim affikslarga bag'ishlangan avtoreferatida omofon til birliklarini ifodalash uchun quyidagi til birliklaridan foydalanilgan:

- omofon morfemalar uchun – omomorfema;
- omofon o'zak-morfema uchun – omomorfema-o'zak;
- omomorfem affiks-morfemalar uchun – omomorfema affiks;
- harflar tarkibi bo'yicha bir xillariga – omografemalar;
- omofon so'zlar uchun – omonimlar.

Ko'pgina lingvistik ishlarda so'z yasovchi omomorfemalar va ko'p ma'noli morfemalar u qadar farqlanmaydi.

Nutqda ikki xil tushunilishi mumkin bo'lgan holatlarga ba'zan ongli ravishda yo'l qo'yiladi, shu asosda so'z o'yini hosil qilinadi. Buni omonimiyadan qisman bo'lsa-da ijobiy foydalanish deb baholash kerak. Ikkinchidan, omonimiyadan maxsus poetik janr – **tuyuq** tuzishda keng foydalaniladi. Ma'lumki, tuyuq xalq og'zaki ijodiyotida ham, yozma badiiy adabiyotimiz tarixida ham alohida o'rin egallagan. Askiyada omonimiyadan ustalik bilan foydalaniladi.

Omonimlar – umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlardir. Ana shunday so'zlarning tilda mavjud bo'lishi va shunga bog'liq hodisalar omonimiya deb yuritiladi. Omonimiya badiiy asarlarda, kundalik muloqot jarayonida keng qo'llaniladigan hodisa bo'lib, uning mavjudligi nutqni ta'sirchan qilishga sezilarli darajada hissa qo'shadi⁵⁶. Omonimlar mumtoz adabiyotda *tajnis*, *iyhom* san'ati va *tuyuq* janrini yaratishda, *askiya* payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriq sifatida ishlatilishi bilan tilni yanada boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, omonimiya hodisasi va omonimlarni yaxlit holda tahlil qilish, ularning badiiy matndagi o'rnini aniqlash tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.I.Smirnitskiy "Некоторые замечания по английской омонимике"
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.– Toshkent:Fan, 1985.– B.24

⁵⁶ Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.–B.76

3. Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. - T.,2015.– B.42
4. Faxri Kamol. O`zbek tili leksikasi. – Toshkent: O`ZRFA nashriyoti, 1953. – B.29-30
5. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o`zbek tili lug`at tarkibining rivojlanish asoslari // O`zbek tili va adabiyoti. – T., 1994 -№ 1
6. Koshg`ariy Mahmud. Devonu lug`otit turk. –Toshkent:1960. – B.56
7. Mirtojdiyev M. O`zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent:1963. –B.124
8. Mirtojdiyev M. O`zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. –B.31
9. Mirtojdiyev M. So`zlarning shakliy munosabatiga ko`ra tiplari // O`zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. –B.255
10. Mutallibov S. Omonim va polisemiya so`zlar. –Toshkent:1954.– B.29-30
11. Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: 1953. – B.15
12. Pinxasov Y. Hozirgi zamon o`zbek tili leksikasi. –Toshkent: 1960.
13. Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo`lish yo`llari // O`zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.
14. Вардуль И.Ф. Место семантики в лингвистическом описании//Вкн.: Проблемы семантики. – М.: Наука, 1974. –С.17-18
15. Г.М. Омонимия транс терминов (на материале узбекского языка) Институт языка и литературы Академии наук Республики Узбекистан. 2012.– С.67
16. Маслов Ю.С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) // Вопросы теории и истории языка: Сборник в честь профессора Б. А. Ларина. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1963. –С.128-202
17. Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. – Фрунзе: 1955. С-262
18. Равшанов М. Омонимы в толковом словаре узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1991. – С.5
19. Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. –Москва:1956. С–160-161.
20. Rajabov F. Omonimiya. – Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019. – 264 b.